

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

IJTIMOY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Email: muhammadjonovago07@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash bilan bog'liq zamonaviy muammolar, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari noqonuniy tarqalishining sabablari, axborot xavfsizligi tahdidlari hamda ularning huquqiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida shaxsiy hayotni himoya qilishga oid normalar, xorijiy tajriba va amaliy takliflar yoritiladi.

Kalit so'zlar. Shaxsiy hayot, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, daxlsizlik, kiberxavfsizlik, huquqiy himoya.

PROBLEMS OF PROVIDING PRIVACY IN SOCIAL NETWORKS

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi

2nd year student of the Faculty of Law, Namangan State University

Annotation. This article analyzes the current privacy problems in social networks, the reasons for the illegal dissemination of users' personal data, threats to information security and their legal consequences. It also examines the privacy protection standards in the legislation of Uzbekistan, international experience and practical recommendations.

Keywords: privacy, social media, personal data, information security, privacy protection, cybersecurity, legal protection.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n19>

XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Telegram, TikTok, Facebook va boshqa platformalar orqali foydalanuvchilar o'z hayoti, fotosuratlari, yashash joyi, telefon raqami, o'qish yoki ish joyi haqidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda e'lon qilmoqda. Biroq bunday axborotlarning oshkoralashuvi ayrim hollarda shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning rozilgisiz fotosurat va videolarni tarqatish, shaxsiy yozishmalarni e'lon qilish, akkauntlarni buzish, shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga sotish kabi holatlar ko'paymoqda. [1; B.7.] Bu esa shaxsiy hayotni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shaxsiy hayot daxlsizligi – bu shaxsning o'ziga oid ma'lumotlar, oilaviy hayot, yashash joyi, yozishmalari, telefon suhbatlari va boshqa shaxsiy axborotlarning uning rozilgisiz oshkor qilinmasligi huquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har kim shaxsiy hayoti, shaxsiy va oilaviy siri daxlsiz bo'lish huquqiga egaligi belgilangan. Shuningdek, shaxsning rozilgisiz u haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tarqatish taqiqlanadi. Shaxsiy hayotga oid ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- Telefon raqami;
- Yashash manzili;
- Passport ma'lumotlari;
- Bank kartasi rekvizitlari;

- Shaxsiy surat va videolar;
- Yozishmalar va audio xabarlar;
- Geolakatsiya va joylashuv ma'lumotlari.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib bordi va insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi sifat jihatidan yangi bosqichga chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda nafaqat muloqot vositasi, balki iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning muhim infratuzilmasiga aylangan. Dunyo miqyosida milliardlab foydalanuvchilar har kuni turli platformalarda faoliyat yuritishi natijasida ulkan hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar ishlab chiqilmoqda va tarqatilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayon shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq murakkab huquqiy va texnologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. [2; B.27.].

Shaxsiy hayot daxlsizligi insonning fundamental huquqlaridan biri bo'lib, u shaxsga oid ma'lumotlar ustidan to'liq nazorat qilish, ularning yig'ilishi, qayta ishlanishi va tarqatilishiga rozilik berish yoki rad etish imkoniyatini anglatadi. Ushbu huquq BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda mustahkamlangan. Milliy darajada esa u konstitutsiyaviy kafolat sifatida e'tirof etiladi. Biroq raqamli muhitning o'ziga xosligi – tezkorlik, global ochiqlik va anonimlik ushbu huquqning amalda ta'minlanishini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. [3; B.78.].

So'nggi yillarda olib borilgan kiberxavfsizlik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar keskin ortib bormoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili milliardlab foydalanuvchi ma'lumotlari sizib chiqadi yoki noqonuniy ravishda qo'lga kiritiladi. Buning asosiy sabablari orasida foydalanuvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, zaif autentifikatsiya tizimlari, "phishing" va "social engineering" kabi hujumlarning keng tarqalishi hamda platformalarning ma'lumotlari keng miqyosda yig'ishi muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi natijasida "raqamli iz" fenomeni shakllanadi. Raqamli iz deganda, foydalanuvchining internetdagi barcha faoliyati natijasida hosil bo'ladigan ma'lumotlar majmui tushuniladi. [4; B.65.]. Ushbu iz ko'pincha foydalanuvchi nazorati doirasidan tashqarida qoladi va uzoq muddat saqlanadi. Bir marta internetga joylashtirilgan foto, video yoki matn materiallari turli serverlar, kesh tizimlari va uchinchi tomon platformalarida nusxalanib qolishi muminligi sababli ularni to'liq yo'q qilish amalda juda qiyin. Kiberjinoyatchilikning zamonaviy shakllari tobora murakkablashi bormoqda. Akkauntlarni buzish, identifikatsion ma'lumotlarni o'g'irlash, "phishing" hujumlari deepfake texnologiyalari asosida soxta kontent yaratish hamda shantaj holatlari eng ko'p uchraydigan xavf turlaridir. Ayniqsa, deepfake texnologiyalarining rivojlanishi shaxsning ishtirokisiz uning tasviri yoki ovozi soxta kontekstda ishlatish imkonini bermoqda, bu esa huquqiy baholashni yanada murakkablashtiradi. [5; B.89.].

Roziligisiz foto va video materiallarning tarqatilishi ijtimoiy va psixologik jihatdan jiddiy oqibatlariga olib keladi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, bunday holatlar shaxsda stress, depressiya, ijtimoiy izolyatsiya va o'ziga ishonchning pasayishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar ushbu holatlardan eng ko'p zarar ko'ruvchi guruh hisoblanadi, chunki ularning psixologik barqarorligi nisbatan zaifroqdir. Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchi xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adi. "Big data" va sun'iy intellek algoritmlari asosida foydalanuvchining

qiziqishlari, joylashuvi, muloqot doirasi va hatto emotsional holati prognoz qilinadi. [6;B.67.]. Ushbu ma'lumotlar asosan reklama va xizmatlarni optimallashtirish maqsadida ishlatilsa-da, ular shaxsiy hayotga bilvosita arlashuv xavfini ham oshiradi. Shu sababli zamonaviy raqamli iqtisodiyotda "ma'lumot – yangi neft" degan yondashuv shakllangan. Huquqiy jihatdan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bir nechta darajada amalga oshiriladi. Milliy qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash faqat qonuniy asosda va shaxs rozligi bilan amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, ushbu normalarni buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq amaliyotda transchegaraviy internet platformalari, anonimlik va texnologik tezlik sababli huquqni qo'llash mexanizmlari yetarli darajada samarali ishlamayapti.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda eng samarali model kompleks huquqiy va texnologik yondashuvdir. Yevropa Ittifoqidagi GDPR tizimi foydalanuvchiga o'z ma'lumotlarini boshqarish, o'chirish, ko'chirish va qayta ishlashni cheklash huquqlarini beradi va qayta ishlashni cheklash huquqlarini beradi hamda ushbu talablar buzilganida juda katta miqdordagi moliyaviy jarimalar qo'llaniladi. AQSHda COPPA qonuni bolalar ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi raqamli savodxonlikni ta'lim tizimi orqali shakllantirish samarali natija berishini ko'rsatadi. [7; B.90.]. Muammoni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, aholining raqamli raqamli savodxonligini oshirish, foydalanuvchilarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ikkinchidan, ikki faktorli autentifikatsiya, biometrik identifikatsiya, end-to-end shifrlash kabi texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Uchinchidan, kiberjinoiyatlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va platformalarning javobgarligini oshirish lozim. To'rtinchidan, huquqiy mexanizmlarni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lish bilan birga, shaxsiy hayot daxlsizligiga nisbatan jiddiy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammoni samarali hal etish faqat huquqiy, texnologik va ijtimoiy omillarni o'zaro uyg'unlashtigan kompleks yondashuv orqali mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 02.07.2019.
3. United Nations, Universal Declaration of Human Rights, 1948.
4. Council of Europe. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data, Strasbourg 2018.
5. Regulation (EU) 2016/679 (General Data Protection Regulation – GDPR), European Union, 2018.
6. Solove D.J. Understanding Privacy. Harvard University Press, 2008.
7. OECD. Digital Security Risk Management for Economic and Social Prosperity. Paris, 2015.
8. www.statista.com (Internet va ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha global statistik ma'lumotlar).
9. www.cybersecurityventures.com (Global kiberjinoiyatchilik hisobotlari).

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.